XALQ DEPUTATLARI SHAROF RASHIDOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 11-mart VII-20-56-3-46-K/26 Sharof Rashidov tumani

Sharof Rashidov tumani bo‘yicha 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalariga nisbatan oshiriluvchi koeffitsientlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-387-son qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 387-sonli qarori 2-xatboshi «V»-bandida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Sharof Rashidov tuman hududida “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Sharof Rashidov tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Ergashev**,** Sharof Rashidov tuman soliq inspeksiyasi (M.Tursunmuratov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Sharof Rashidov tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va

iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Isakov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **AKBAROVA SHOIRA UKTAMOVNA**

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani
Kengashining
2026-yil 11-martdagi
VII-20-56-3-46-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Sharof Rashidov tumanida 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari

T/r	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)	
		O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	2026-yil uchun belgilangan yig‘im miqdori
1.	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	330 000
2.	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	165 000